

**KO'CHATXONADA MAHALLIY VA HORIJIY OLMA NAVLARINING  
PAYVANDTAGLARGA MUTANOSIBLIGI HAMDA ULARNING O'SISH  
DINAMIKASINI O'RGANISH.**

**Tashboev Shuxratbek Tursunovich,**  
Akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik,  
uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon ilmiy tajriba stansiyasi direktori  
**Ibaydullayev Shuhratbek Boymirza o'g'li,**  
Akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik,  
uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon ilmiy tajriba stansiyasi ilmiy xodimi  
**Matmusaeva Gulmiraxon Arab qizi**  
Adijon qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalari  
Instituti 1-bosqich magistranti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada olmaning mahalliy va horijiy So'h malikasi. Vilyams prayt va Galashiniga navlarinini pakana va yarim pakana MM-106, MM-105 payvantag'larga mutanosibliga va ularning o'sish dinamikasi tana diametirini shaklanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

*Annotation.* In this article, the domestic and foreign Soh queen of apples. Information on the proportion of Williams pryte and galashina varieties to small and semi-small MM-106, MM-105 grafts and their growth dynamics and formation of body diameter is given.

*Kalit so'zlar* MM-106, MM-105 M-IX payvandtag' So'h malikasi. Vilyams prayt Galashiniga nav pakana, yarim pakana, sertifikat

**Key words** MM-106, MM-105, M-IX, rootstock, So'h malikasi, Vilyams prayt, Galashiniga, variety certificate

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan tub o'zgarishlar meva ko'chatchiligiga ham bevosita ta'sir etmoqda. 2023-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida meva, uzum va rezavorlarning ekinlarining ko'chatlarini yetishtirishni rivojlantirish milliy dasturining 5–bandida kasallik va zararkunandalarga hamda qurg'oqchilikka chidamli meva, uzum va rezavorlarning yangi navlarini yaratish Sertifikatlangan meva va uzum payvandtag'lari hamda ko'chatlarini ko'paytirish va yetishtirishni yo'lga qo'yishga vazifasi yuklatilgan. Oxirgi yillarda ko'chatchilik tarmog'ini yangi texnologiyalar asosida rivojlantirish, sifatli va sertifikatlangan meva ko'chatlarini yetishtirishga hamda bog'bonlarga yetkazib berishda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Akademik M.Mirzaev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Andijon ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan urug'li danakli va

subtropik meva ekinlarni standart ko‘chatlarini yetishtirish xajmi ko‘paytirish orqali xosilli bog‘larni barpo etishga aholida aloxida etibor qaratilmoqda.

Respublikamiz bog‘larida mevali va rezavor mevali o‘simliklarning zarur xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan mahalliy va chetdan keltirilgan navlari o‘stirilmoqda. Qayta ishlash sanoatining rivojlanishi, ikisodiyotning bozor tizimiga o‘tishi navlarga bo‘lgan talabni ortgirib bormoqda. Shuning uchun mahalliy sharoitlarga moslashgan, xosildor, har xil xo‘jalik maqsadlarida ishlatish uchun yaroqli yangi navlarni yaratish, respublikamizda mevali va rezavor mevali o‘simliklar navlar majmuini yaxshilash xamda ko‘chatchiligini tizimli tashkil-ilmiy tadqiqotlarimizning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda olma va nok o‘simliklarini turli xil payvandtaglarga ulab yetishtirish – ularni ko‘paytirishning yo‘li hisoblanadi. Shuning uchun ko‘chatxonada payvandtaglarni o‘sishi, ularga ulangan payvandustlarni tutib ketishi, ko‘chatlarni tana uzunligi va qalinligi ko‘rsatkichlari muhim hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida olmaning “Golden”, “Reynjers” va “Gala Geleksi” navlarini M-9 va MM-106 MM-105 klon payvandtaglarida o‘rganishgan. Tadqiqotda payvandtag diametri, uzunligi va nav bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar katta farqlanishga sabab bo‘lganligi ma’lum qilingan [5].

Shu bilan birga, ko‘chatlarni o‘sish dinamikasida ildizlarning o‘sishi muhim omil sifatida qaralgan [4]. Bunda ko‘chatlarni ildiz tizimini shakllanishi, ildizlarning o‘sishi va funkcionalligining oshishi, o‘g‘it va suv sarfini kamaytirishga hamda o‘simlikni optimal yetishtirish imkonini berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ildiz tizimi dinamikasiga ekologik, biologik omillar katta ta’sir etishi, ularni asosida esa ildiz populyatsiyalari modeli va funkcionalligini ishlab chiqishda qo‘l keladi.

Tadqiqotlar Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Andijon ilmiy tajriba stansiyasining 2-uchastkasida o‘tkazildi. Olmaning pakana o‘suvi M-9 payvandtagi hamda yarimpakana MM-106 hamda MM-105 payvandtaglarida, tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotlar asosan “Mevali, rezavor va yong‘oqmevali ekin turlari navlarini o‘rganish dasturi va uslubi”dan [1, 2] foydalangan holda olib borildi.

Olmaning So‘h malikasi Vilyams sprayt Galashniga navlari MM- 106 yarimpakana payvandtagida tutish ko‘rsatkichi 85-92% ko‘rsatgan bo‘lsa, So‘h malikasi Vilyams sprayt Galashniga navlari MM- 105 yarimpakana payvandtagida So‘h malikasi Vilyams sprayt Galashniga navlari 70.2-74 % pakana M-9 payvandtagida 76.3-79.2% bo‘lganligi aniqlandi. Bu yarim pakana MM-105 payvandtagida tutish ko‘rsatkichining pastligi, madaniy navlar bilan o‘zaro mutanosiblik ko‘rsatkichlarini pastligini havo haroratining yuqoriligi, tuproq namligini pastligi, payvandtag va payvandust novdaniy diametriga bog‘ligi bilan izohlashimiz mumkin (1-jadval).

## Olma va payvandtaglarining biometrik ko'rsatkichlar aprel oyining II o'n kunligi), 2023 y.

Hav nomi	Ko'chatlar ning bo'yi, sm	Ko'chatlar ning tana diametri, sm	Tutib ketishi, %	Ko'chatlar ning bo'yi, sm	Ko'chatlar ning tana diametri, sm	Tutib ketishi, %	Ko'chatlar ning bo'yi, sm	Ko'chatlar ning tana diametri, sm	Tutib ketishi, %
	MM-105			MM-106			M-IX		
So'h malikasi	20-23	0.7	70.2	24.3-26.2	0.6	85.3	22.8-24.2	0.65	78.5
Vilyams sprayt	23.0-27.5	0.9	71.8	32.0-27.5	0.89	86.4	28.3-30.9	0.9	79.2
Galashniga	23.5-26.8	0.9	74.0	28-30	0.85	92.2	27.5-31.2	0.92	76.3

Meva ko'chatlarining o'sish dinamikasiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, MM-105 payvandtagida "Vilyams sprayt" navi "So'h malikasi" naviga nisbatan ko'chatlarning bo'yini balandligi va ko'chat tanasining yo'ngonligi bilan farqlangan bo'lsa, M-IX payvandtagida "So'h malikasi" navi ko'chatlari "Galashniga" navi ko'chatlariga nisbatan 4-7 sm pastroq hamda ko'chat tanasi diametri bo'yicha esa 0,05-0,1 sm gacha farq kuzatildi. Bundan xulosa esa, ko'chatlarning o'sish dinamikasi faqatgina olma navlari orasida sezilarli darajada farq qilgan.

Ilmiy tadqiqotni xulosasiga ko'ra, olma ko'chatlarini turli payvandtaglar bilan tutishi payvandtag turiga va ulanayotgan navga bog'liqligi aniqlangan bo'lsa, ko'chatlarning o'sish dinamikasida esa olma navlari orasidagi farq sezilarli bo'lgan.

### Foydalanigan adabiyotlar

1. Bo'riev X.Ch., Yenileev N.Sh. va b. Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – T, 2014.
2. Рыбаков А.А., Остроухова С.А. "O'zbekiston mevachiligi" T: O'qtuvchi 1981
3. M.M.Mirzaev, M.K. Sobirov "Bog'dorchilik" T. Mehnat 1987
4. A.A.Qosimov Sh.T.Tashboev D. Sh. Najmudinova "Andijon viloyati xududlarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish" bo'yicha tavsiya (2022 y)